



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI



O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
YOZUVCHILAR UYUSHMASI

**O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING
DOLZARB MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

Respublika onlayn ilmiy-nazariy anjuman materiallari to'plami

Akademik
Aziz Qayumov
tavalludining 95 va
professor Laziz Qayumov
tavalludining 90 yilligiga
bag'ishlanadi

2020-yil
6-7-noyabr

**O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Farg‘ona viloyati yozuvchilar uyushmasi
Qo‘qon shahar hokimligi**

**Akademik Aziz Qayumov tavalludining 95 va professor Laziz Qayumov
tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlangan „O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb
masalalari: muammo va yechimlar“ mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-nazariy
anjumani materiallari**

2020-yil 6-7-noyabr

Mas‘ul muharrir: M.Atadjanov, Qo‘qon DPI rektori

Tahrir hay‘ati:

E.Siddiqova , O‘zbekiston xalq shoirasi, senator.

**N.Jabborov, A.Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori.**

J.Eshonqul, A.Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi direktori.

Z.Qobilova, Qo‘qon DPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani

D.Zohidova, Qo‘qon DPI o‘zbek adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.n., dotsent

B.Abdurahmonova, Qo‘qon DPI dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

S.Usmonova, Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

S.Mirzayeva, ADU professori, filologiya fanlari doktori.

A.Turdaliyev, filologiya fanlari nomzodi.

Nashrga tayyorlovchi:

D.Asqarov, o‘zbek tili va adabiyoti magistranti

**Ushbu to‘plam Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining
2020-yil 30-oktabrdagi 3-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.**

**Eslatma: To‘plamga kiritilgan maqolalar shakli va mazmuniga shaxsan
mualliflarning o‘zlari javobgardirlar**

4. Ҳаққул И. Абадият фарзандлари. -Т.: 1990.
5. “Сирли олам” журнали, 1994-йил. 4-сон.

Темурийлар даври адабиёти ўрганилишида Азиз Қаюмовнинг ўрни

ХАБОХУНОВА РОЗИЯХОН

Академик Азиз Қаюмовдан бой илмий-адабий мерос қолди. Олим асарлари адабиётимизнинг энг қадимги даври – тошбитиклардан Аҳмад Фарғоний, Абу Райҳон Беруний ва Абу Али ибн Сино адабий асарларигача, Алишер Навоий, Заҳриддин Бобур меросидан Қўқон адабий муҳити ижодкорларигача, Зокиржон Фурқат шеърятидан XX аср адабиётигача бўлган катта даврни ҳамда кенг миқёсда қамраб олади. Адабиётшунос олимлар ичида Азиз Қаюмов айна шу хусусияти – илмий фаолият қамровининг катта экани билан алоҳида ажралиб туради.

Олимнинг ўзбек адабиёти тарихига доир илмий-адабий асарларини қуйидаги тасниф асосида ўрганиш мумкин:

1. Қадимги давр адабиётига доир асарлар.
2. Амир Темур ва темурийлар даври адабиётининг тадқиқи.
3. Навоийшунослик йўналишидаги тадқиқотлар.
4. Бобур ва XVI аср адабиётига оид илмий ишлар.
5. Қўқон адабий муҳитининг ўрганилиши.
6. Алишер Навоий асарларидан қилинган таржималари.

Бундан ташқари, Азиз Қаюмов XX аср ўзбек адабиёти бўйича ҳам бир қанча рисоалар, илмий мақолалар эълон қилган. Юқоридаги тасниф, биринчидан, Азиз Қаюмов илмий асарлари кўламини нисбатан яққолроқ тасаввур этиш имконини берса, иккинчидан, уларни таҳлил этишда қулайлик туғдиради.

Академик Азиз Қаюмов Амир Темур ва темурийлар даври адабиётини ўрганишга алоҳида диққат қаратган. “Амир Темур мавзуси Навоий ижодида”, “Амир Темур қиссалари”, “Шоҳрух мирзо”, “Улуғбек мирзо” деб номланган тадқиқотлари бу фикрни тасдиқлайди.

“Амир Темур мавзуси Навоий ижодида” мақоласида олим “Мажолис ун-нафонс” ва “Ҳайрат ул-аброр”даги Соҳибқирон фаолиятига оид лавҳаларни таҳлил этади. “Мажолис ун-нафонс”даги Амир Темурнинг шеърни маҳорат билан ўқиши, Алишер Навоийнинг “...анингдек бир байт ўқиғони минг яхши байт айтқонча бор”, деган эътирофи билан боғлиқ фикрлар, айниқса, эътиборга лойиқ. Шундан кейин таъкирда Соҳибқироннинг ўғли Табриз ҳокими Мироншоҳнинг ичкиликбозликка берилиши, бунда унинг уч надами – Хожа Абдулқодир, Мавлоно Муҳаммад Коҳий ва Қутб Нойи айбдор экани воқеаси таҳлил этилган. Амир Темурнинг амри билан улардан иккисининг бошини кесиб, Самарқандга келтирадилар. Хожа Абдулқодир эса қаландарлар билан бирга қочиб, юрт кезиб юради. Соҳибқирон Ироққа юриш қилганда, унинг ўша ерда эканини билиб, тутиб келтирмоққа буйруқ беради. Қуръони Каримни бениҳоя ёқимли овозда қироат қиладиган Хожа Абдулқодир Амир Темур ҳузурда тиз чўкиб тиловат этмоққа тушади. Натижада Соҳибқироннинг ғазаб лутф билан алмашиб, Шайх Абу Саъид Абулхайр рубоийсидан олинган: “Абдол зи бийм бар Мусҳаф чанг зад (Қаландар кўққанидан

Қуръонга ёпишди)” сатрини ўқийди. “Мажолис ун-нафоис”нинг еттинчи мажлисида зикр этилган бу воқеани таҳлил этар экан, олим бу орқали, биринчидан, Амир Темурнинг ҳар қандай ҳолатга мос шеърӣ мисралар келтира олиш салоҳиятини, иккинчидан, қаҳр баробарида шафқат кўрсатишда ҳам ҳукмдорларга ўрнак эканини таъкидлайди¹.

“Амир Темур қиссалари” мақоласида ўша кезлари Ўзбекистон ФА Қўлёзмалар институти фондида 6537/ИИ рақами билан сақланган “Қиссаи Амир Темур” қўлёзмаси, 3731 рақами билан сақланган “Темурнома” асари тошбосма нусхаси, 1991 йили нашрдан чиққан “Темурнома (Амир Темур Кўрагон жангномаси)” асарлари таҳлилга тортилган. Олим қўлёзма ва тошбосма манбаларнинг батафсил тавсифини беради. Азиз Қаюмов тадқиқотларининг ўзига хос хусусиятларидан бири бадий асарни таҳлил этишдан олдин унинг қисқача мазмунини баён этишида кўринади. Ана шу анъанага кўра, олим дастлабки икки асар воқеаларини мухтасар ҳикоя қилади. Шундан сўнг уларнинг Соҳибқирон ҳаётига доир манбалардаги маълумотларга қандай янгиликлар киритиши масаласига таҳлилий муносабат билдиради. Жумладан, олим “Амир Темурга бағишланган бу қиссаларда Соҳибқироннинг ўз давридаги улуг сўз усталари – шоир ва мутафаккир зотлар Камол Хўжандий, Ҳофиз Шерозий ва бошқа ижодкорлар билан алоқалари тўғрисида марокли лавҳалар бор”²лигини айтиб, улар тадқиқига ўтади.

Ушбу қиссаларни таҳлил этар экан, олим уларда тасвирланган воқеаларнинг тарих ҳақиқатига нечоғлик мувофиқ эканига эмас, адабий қимматига эътибор қаратади. Олимнинг гарчи аниқ муаллифлари бўлса ҳам, ушбу қиссаларнинг халқ китоблари услубида ёзилгани, уларда Соҳибқирон образи идеаллаштириб тасвирлангани, бу асарлар Амир Темурнинг шахс ва ҳукмдор сифатидаги ўзига хослигини ва халқ оммасининг унга муносабатини аниқлашда алоҳида аҳамиятга эга экани ҳақидаги хулосалари ушбу фикрни тасдиқлайди.

Олим Амир Темурнинг кичик ўғли Шоҳрух Мирзо ва суюкли невараси Улуғбек Мирзога бағишлаб алоҳида рисоалар ёзган. “Шоҳрух Мирзо” рисоласида дастлаб биографик маълумотлар, кейин эса, Хуросон ҳукмдорининг бунёдкорлик ишлари, давлат бошқарувида ички ва ташқи сиёсат юритишига доир фаолияти, илм-фан равнақига эътибори, алоҳида бобда унинг даврида адабиёт ривож масаласи тадқиқ қилинган. Рисолада Шоҳрух Мирзо даврида ижод қилган Лутфий, Жомий, Қосим Анвар, Мавлоно Ашраф, Исмаи Бухорий, Саккокий, Мавлоно Ҳусайн Хоразмий ижодлари, қасида жанри такомил мавзунга қисқача тўхталинган. Азиз Қаюмовнинг хулосасига кўра: “Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкирасида биринчи мажлис шоирлари қирқ беш кишидир. Жомийнинг “Баҳористон”ида, Давлатшоҳ Самарқандийнинг “Тазкират уш-шуаро”сида кўрсатилган шоирлардан маълум қисми 1405-1447 йиллари Шоҳрух ҳукмрон

¹ Қаюмов А. Амир Темур мавзуси Навоий ижодида. / Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б.151

² Қаюмов А. Амир Темур қиссалари. / Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 160-171.

бўлган даврга мансуб ижодкорлардир. Бу далиллар ҳаммаси Шоҳрух Мирзо замонидаги адабий ва маданий ҳаётнинг равнақидан дарак беради”¹.

Ушбу рисолада Олим адабий ҳаёт таҳлиliga мухтасар тўхталган, алоҳида ижодкорлар фаолияти тезис тарзида ёритилган. Бундан муайян ҳукмдорлар, жумладан Шоҳрух Мирзо даври адабиётини махсус тадқиқ этиш адабиётшунослик олдида турган долзарб вазифалардан экани аён бўлади.

Рисоланинг алоҳида боби “Фарзандлар” деб номланган. Ушбу бобда Шоҳрух Мирзонинг Гавҳаршодбегимдан уч ўғил – Улуғбек Мирзо, Бойсунғур Мирзо ва Муҳаммад Жўкий Мирзо, бошқа рафиқаси Тўти бегимдан Иброҳим Султон Мирзо дунёга келгани ҳақида маълумот берилади. Бойсунғур Мирзо фаолиятига нисбатан кўпроқ ўрин ажратилган. Муҳаммад Жўкий Мирзо ва Иброҳим Султон Мирзо ҳақида қисқача тўхталинган. Улуғбек Мирзо хусусида алоҳида рисола битилган.

“Улуғбек Мирзо” рисоласида бу улуғ сиймонинг ҳаёти ва ижоди тўғрисида мухтасар маълумот берилгач, “Зижи жадиди Кўрагоний”² асари, унинг таркибий тузилиши, қўлёзма нусхалари, инглиз, форс, лотин, поляк, француз тилларидаги нашрлари, Ашраф Аҳмедов томонидан амалга оширилган ўзбекча таржимаси ҳақида, Улуғбекнинг илмий доираси, ўша замоннинг машҳур олимларидан Ғиёсиддин Кошийнинг Улуғбекка ёзган хати, “Тўрт улус тарихи” асари, Зайниддин Восифийнинг “Бадое ул-вақое”, Абдураззоқ Самарқандийнинг “Матлаъи саъдайн” асарларида Мирзо Улуғбек зикри, Саккокийнинг буюк султонга бағишланган қасидалари, Навоий ва Бобурнинг бу улуғ олим ва аллома ҳақида ёзганлари, мутафаккир илмий меросига Ўзбекистонда ва дунёда кўрсатилаётган эътибор масалалари тадқиқ қилинган³.

Мазкур тадқиқотлар Азиз Қажумов томонидан Амир Темур ва темурийлар даври адабиёти, улар ҳақида ёзилган асарлар илмий ўрганилганидан далолат беради.

MA'RIFATLI XONADON FARZANDI

Yuldosheva Umida Xaitali qizi

Guliston davlat universiteti

adabiyotshunoslik yo'nalishi magistranti

Adabiyotshunos olim, professor Begali Qosimov professor Laziz Qayumovga bag'ishlagan maqolasini “Ma'rifatli xonadon farzandi” deb nomlagan edi. “Professor L.Qayumov ma'rifatli bir xonadonning farzandi, an'anaviy Qo'qon adabiy muhiti tarbiyasida shakllangan mutaxassis sifatida adabiyotimiz tarixi faktlarini yaxshi biladi, nozik his qiladi. Domlaning padari buzruvorlari Po'latjon Qayumiyning yaqinda chop etilgan uch jildlik “Tazkirayi Qayumiy”sini, akalari akademik Aziz Qayumovning adabiyot ilmidagi xizmatlarini eslash kifoya. Qolaversa o'z faoliyati davomida qanchadan - qancha yig'ilish - anjumanlarda qatnashdi, fan va madaniyatning qanchadan – qancha katta – kichik arboblari bilan uchrashdi.

¹ Қажумов А. Шоҳрух Мирзо. / Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. –Тошкент: Муштоз сўз, 2010. – Б. 204.

² Рисолада асар “Зижи Султони Кўрагоний” тарзида номланган. Қаранг: Қажумов А. Улуғбек Мирзо. / Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. –Тошкент: Муштоз сўз, 2010. – Б. 227.

³ Қажумов А. Улуғбек Мирзо. / Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. –Тошкент: Муштоз сўз, 2010. – Б. 219-254.

12.	Ijobat Jo'rayeva, Xalqaro Toshkent Vestminster universiteti o'qituvchisi. "Яппи" в американской литературе.	63
13.	Abdunabi To'uchiyev, GulDU, tayanch doktorant. Norbo'taning tubsiz osmoni.	65
14.	Javlonbek Jovliyev, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyi, tayanch doktorant. Shayxzoda – mumtoz adabiyotimiz bilimdoni.	69
15.	Ijobat Saymuratova, GulDU, katta o'qituvchi. Badiiy adabiyotda Sizif talqini.	72
16.	Tojixon Toshboltayeva, QDPI, katta o'qituvchi. Ilohiy so'z sehri.	77
17.	Muqaddas Saidakbarova, QDPI, o'qituvchi, Zuhaxon A'zamova, talaba. "O'lar holin Navoiy ayladi nazm..."	81
18.	Roziyaxon Xabxonova, ADU, katta o'qituvchi. Qo'qon adabiy muhiti Aziz Qayumov talqinida	84
19.	Umida Yuldosheva, GulDU, magistrant. Ma'rifatli xonadon farzandi	86
20.	Nafisa Karimova, TDO'TAU, magistrant. Tog'ay Murod ijod jarayoni haqida.	89
21.	Shahnoza Azimjonova, Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi, o'qituvchi. "Tazkirayi Qayyumiy" va Toshkent adabiy muhiti.	91

2-sho'ba

"Adabiy matn tahlili va talqini masalalari"

1.	Mo'minjon Siddiqov, QDPI, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Aziz Qayumovning "Iskandarnoma"si.	94
2.	Ma'rifat Rajabova, BuxDU, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida farzandliksiz motivi.	98
3.	Oybek Barziyev, FarDU, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Milliy uyg'onish davri o'zbek she'riyatida muhtojlik muammolari talqini (Vodiylik shoirlar ijodi misolida).	102
4.	Ma'mura Rashidova, Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, katta ilmiy xodim, filologiya fanlari nomzodi. Akademik Azizxon Qayumovning "Nizomiy "Xamsa"si talqini" asari xususida.	107
5.	Shahlo Xojiyeva, O'MU, filologiya fanlari nomzodi. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostoni akademik Aziz Qayumov talqinida.	110
6.	Obodon Adizova, BuxDU, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Qo'qon adabiy muhiti tadqiqi Aziz Qayumov talqinida.	113
7.	Durdona Zohidova, QDPI, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. G'aribiy va Charxiy.	119
8.	Barno Abdurahmonova, QDPI, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Ijoddagi mushtaraklik.	122
9.	Barno Abdurahmonova, QDPI, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, Abdulaziz Qodirov, talaba. Tashbeh – o'xshatish san'ati.	123